

**YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARI
YOSHLAR MA'NAVIY KAMOLOTI VA AXLOQIY QADRIYATLAR TIMSOLI**

Hamzayeva Dilnura Shuhrat qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi.

hamzayevadilnura136@gmail.com

Ilmiy rahbar: dotsent Yuldasheva Saodat Azizovna

Annotatsiya. Turkiy adabiyotning yuksak durdonalaridan biri sanalgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari IX-XI asrlarda shakllangan davlatchilik, ilm-ma'rifat va axloqiy qarashlarning noyob mahsulidir. Ushbu asar insonning ma'naviy yetukligi, adolat tamoyillari va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy kamolotini shakllantirishda "Qutadg'u bilig" o'rganilishi nihoyatda muhim bo'lib, u jamiyat barqarorligi va taraqqiyotida beqiyos o'rinn tutadi. Mazkur maqolada asarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, unda ilgari surilgan axloqiy qadriyatlar hamda olimlarning fikrlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. "Qutadg'u bilig", didaktik asar, ijtimoiy-siyosiy muhit, Kuntug'di, Oyto 'ldi, O'g'dulmush, O'zg'urmush, odob-axloq, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar.

**"КУТАДГУ БИЛИГ" ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА
ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ И НРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ МОЛОДЕЖИ**

Хамзаева Дилнурा Шухратовна,

Студентка Узбекско-Финского педагогического института.

Научный руководитель: доцент Юлдошева Саодат Азизовна

Аннотация. Произведение Юсуфа Хоса Хаджиба "Кутадгу Билиг", считающееся одним из величайших шедевров турецкой литературы, представляет собой уникальный продукт государственности, знаний и нравственных взглядов, сформировавшихся в IX-XI веках. Эта работа служит пропаганде духовной зрелости человека, принципов справедливости и нравственных ценностей. Сегодня изучение "Кутадгу Билиг" имеет чрезвычайно важное значение в формировании духовной зрелости молодежи, играет несравненную роль в стабильности и развитии общества. В данной статье анализируется место труда в воспитании молодежи, нравственные ценности, выдвигаемые в нем, а также мнения ученых.

Ключевые слова. "Кутадгу билиг", дидактическое произведение, общественно-политическая обстановка, Кунтугди, Айттолдди, Огдулмуш, Озгурмуш, мораль, социальные нормы, ценности.

**YUSUF KHOS NAJIB'S WORK "KUTADG'U BILG" THE EMBLEM
OF YOUTH'S SPIRITUAL IMPROVEMENT AND MORAL VALUES**

Hamzayeva Dilnura Shuhratovna,

student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Scientific supervisor: associate professor Yuldasheva Saodat Azizovna

Annotation. Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu Bilig", considered one of the masterpieces of Turkic literature, is a unique product of statehood, science, enlightenment and moral views formed in the 9th-11th centuries. This work serves to promote human spiritual maturity, principles of justice and moral values. Today, the study of "Kutadgu Bilig" is extremely important in shaping the spiritual maturity of young people, and it plays an incomparable role in the stability and

development of society. This article analyzes the role of the work in the upbringing of young people, the moral values proposed in it, and the opinions of scholars

Keywords. "Kutadgu bilig", didactic work, socio-political environment, Kuntugdi, Aitolddi, Ogdulmush, Ozgurmush, morality, social norms, values.

YUSUF KHOS HACIB'DEN "KUTADGU BİLİG" GENÇLERİN RUHSAL GELİŞİMİ VE AHLAK DEĞERLERİ

Hamzayeva Dilnura Şöhret kızı,

Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi.

Bilimsel danışman: Yuldasheva Saodat Azizovna

Özet. Türk edebiyatının büyük başyapıtlarından sayılan Yusuf Khos Hajib'in "Kutadgu Bilig" adlı eseri, 9-11. yüzyıllarda oluşan devletçilik, bilgi ve ahlak anlayışının eşsiz bir ürünüdür. Bu eser, insanın manevi olgunluğunun, adalet ilkelerinin ve ahlaki değerlerin geliştirilmesine hizmet etmektedir. Günüümüzde gençlerin manevi olgunluğunun oluşmasında "Kutadgu Bilig" çalışması son derece önemli olup, toplumun istikrarı ve gelişmesinde eşsiz bir rol oynamaktadır. Bu makalede eserin gençlerin eğitimindeki yeri, ortaya koyduğu ahlaki değerler ve bilim adamlarının görüşleri incelenmektedir.

Anahtar kelimeler. "Kutadgu bilig", didaktik eser, sosyo-politik çevre, Kuntugdi, Aitolddi, Ogdulmush, Ozgurmush, ahlak, toplumsal normlar, değerler.

Yusuf Xos Hojib o‘z asarida odamiylik,adolat,donishmandlik va halollik kabi fazilatlarni tarannum etgan. Asar o‘z zamonasining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ahloqiy muhitini aks ettirgan holda, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

“Qutadg‘u bilig” asari 6520 baytdan iborat bo‘lib, 73 fasl-bobga bo‘lingan. Asarning asosiy qahramonlari Kuntug‘di (Adolat), O‘gdulmish (Aql), Ayto‘ldi (Davlat) va Odg‘urmish (Qanoat) orqali muallif insoniyat hayotining eng muhim poydevorlarini tushuntiradi.Ushbu qahramonlar o‘rtasidagi suhabatlar orqali muallif jamiyatdagi turli tabaqalar vakillarining o‘rni, bilimning ahamiyati va axloqiy qadriyatlar haqidagi o‘z fikrlarini bayon etadi.

Ilm va ma’rifatning ahamiyati: Asarda ilm nur sifatida tasvirlanadi va olimlar mash’alador kishilar deb ta’riflanadi. “Ularning ilmi xalqqa mash’al bo‘ldi, mash’al yoritsa tunda yo‘ldan adashilmaydi”. Bu o‘rinda ilm-fanning jamiyatdagi yo‘ldoshimiz ekanligi ta’kidlanadi.

Til va so‘zning kuchi: Muallif tilni arslon bilan taqqoslaydi, chunki u hovlida yotgan arslon kabi xavfli bo‘lishi mumkin. “Til hovlida yotgan arslon kabi, ey, qafasdagи vahshiy boshingni yeydi.” Bu, til va so‘zning kuchi orqali inson hayotida qanday ijobjiy yoki salbiy o‘zgarishlar yuz berishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Hunarmandchilik va mehnatning qadri: Asarda hunarmandlar va dehqonlarning mehnati yuqori baholanadi. “Juda zarur kishilardir... temirchi, tikuvchi, etikchi, suvchi, egarchi, toshchi, o‘qchi, kamonchilarining foydasi katta”. Bu hunarmandlarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi.

Odob-axloq va insoniy munosabatlar: Asarda odob-axloq qoidalari, insoniy munosabatlar va ijtimoiy me'yorlar haqidagi ko‘plab hikmatlar mavjud. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib, jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhimdir.

Umumiy xulosa. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari o‘z davrining ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettirgan holda, hozirgi kunda ham qadrlanadigan axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Ilmga intilish, tilni to‘g‘ri ishlatish, mehnatni qadrlash va odob-axloq qoidalariiga rioya qilish kabi g‘oyalar asardan olingen saboqlardir. Ushbu qadriyatlar jamiyatimizda barqarorlik va taraqqiyotning asosidir. Asarda hukmdor donishmand bo‘lishi,adolat va tavozeni saqlashi kerakligi ta’kidlanadi. Muhammad Solihxo‘jayev shunday yozadi: “Qutadg‘u bilig” o‘z

davrida nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-axloqiy qo'llanma vazifasini ham bajargan. Uning ta'sir doirasi asrlar osha kengayib, bugungi kungacha ahamiyatini yo'qotmagan".

Demak, asar insonning har bir bosqichdagi hayotiy qarorlarini aql bilan qabul qilishi va odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilishi lozimligini uqtiradi.

Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning axloqiy me'yordarga rioya qilishi, bilim va odobga intilishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Qutadg'u bilig" bu borada boy tajriba manbai bo'lib, u insonni jamiyatning faol va mas'uliyatlari a'zosiga aylantirishga xizmat qiladi. Asarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Ilmgaga hurmat va donishmandlikka intilish. Asarda bilimdon va oqil bo'lishning inson hayotida muhim ekani ta'kidlangan.

2. Halollik va adolat mezonlari. Yoshlar adolatli bo'lishi va haqiqatni targ'ib qilishi lozimligi vurg'ulangan.

3. Davlatga sadoqat va ijtimoiy mas'uliyat. Inson o'z Vataniga va jamiyatga xizmat qilish orqali o'zining haqiqiy insoniy burchini ado etishi lozim.

Professor H.Nazarov ushbu asarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida shunday yozadi: "*Qutadg'u bilig*" yosh avlodni haqiqat, adolat va ilmgaga intilishga undovchi noyob asardir. *Undagi pand-nasihatlar bugungi kun yoshlariga ham bevosita taalluqlidir*". Shunday qilib, bu asar yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos manba hisoblanadi.

"Qutadg'u bilig" jamiyat hayotining turli jabhalarida amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yordarni belgilab beradi. Xususan, quyidagi axloqiy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi:

- Adolat – hukmdor adolatli bo'lsa, davlat mustahkam bo'ladi.
- Halollik va vijdon – har qanday kasb egasi o'z ishiga vijdoran yondashishi lozim.
- Qanoat va sabr-toqat – hayotdagi sinovlarga bardosh berish va qanoatlilik fazilati insonni kamolga yetkazadi.

Olim A.Jalilov asar haqida shunday deydi: "*Qutadg'u bilig*" axloqiy-ma'naviy qadriyatlar majmuasi bo'lib, unda davlat va jamiyat boshqaruvidan tortib, shaxsiy fazilatlarga bo'lgan muhim masalalar yoritilgan". Bu fikr asarning nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning mustahkamligini ta'minlovchi manba ekanini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari insonning ma'naviy yuksalishi, odob-axloq me'yordalarini o'zlashtirish va jamiyatda o'z o'rnini topish yo'lida muhim o'rin tutadi. Uning yoshlarga bergan saboqlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, kelajak avlodning yuksalishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Asarda ilgari surilgan adolat, halollik, ilm va qanoat kabi tamoyillar yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham "Qutadg'u bilig" nafaqat o'tmishning bebaho merosi, balki hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan ma'naviy yulduz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. – T.: Fan, 1990. – B 34.
2. Solihxo'jayev M. Turkiy falsafiy merosi va uning hozirgi davr uchun ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2005. – B 123.
3. Nazarov H. Yusuf Xos Hojib va uning ilmiy merosi. – Samarqand, 2012. – B 13
4. Jalilov A. *Qutadg'u bilig* – hayot falsafasi. – Toshkent: Fan. 2019. – B 86
5. G'afurov A. Sharq adabiyotida axloqiy qadriyatlar evolyutsiyasi. – Buxoro, 2021. – B 11.